

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta’limga oid ilmiy jurnal

№2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

*Elektron nashr. 168 sahifa, 26-dekabr, 2023-yil.*


## TAHRIR HAY'ATI:

| | | |
|---|---|---|
| Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich | tarix fanlari doktori, professor | Bosh muharrir |
| Ibragimova Gulsanam Ne'matovna | pedagogika fanlari doktori(DSc), professor | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Hamdamova Maxzuna Tursunovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | Bosh muharrir o'rinbosari |
| Jamoldinova Odinaxon Rasulovna | pedagogika fanlari doktori, professor | A'zo |
| Djamilova Nargiza Nuriddinovna | pedagogika fanlari doktori (DSc), professor | A'zo |
| Babayeva Dono Razzakovna | pedagogika fanlari nomzodi, professor | A'zo |
| Sadikova Shoista Akbarovna | pedagogika fanlari nomzodi, professor | A'zo |
| Jumanova Fotima Uralovna | pedagogika fanlari nomzodi, dotsent | A'zo |
| Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Mirzayeva Farog'at Odiljonovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Bafayev Muxiddin Muxammatovich | psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Ne'matov Shuhrat Ergashovich | pedagogika fanlari nomzodi | A'zo |
| Ochilov Sevin Rajaboyevich | Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti | A'zo |
| Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna | Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) | A'zo |
| Radjapova Zuxra Tirkashevna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |
| Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna | pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent | A'zo |



Muassis: **"Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ**

Hamkorlarimiz: **Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,**
**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**

# MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) ... 5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna

Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari ... 9
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna

Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов ... 13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishida qo'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati ... 16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati ... 19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi

Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях ... 23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна

Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni ... 27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish ... 33
Sharofiddinova Madinabonu

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish ... 36
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi

Modern and High-Quality Methods in Schools ... 40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna

Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ... 44
Дурдона Туракулова

Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей ... 48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна

Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish ... 52
Sotiboldiyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi

Jadidchilik harakatining vujudga kelishi ... 55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna

Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar ... 59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi

Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari ... 62
Adizova Gulzoda Mehriddinovna, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi

The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth ... 65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich

Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv ... 67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna

Hayot sifatini oshirish – davr talabi ... 70
Abdullayeva Ranajon Matyoqubovna

Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish ... 73
Rizayeva Gulnora Botirovna

О специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении ... 80
Тиллашайхова Хосият Азаматовна

Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati ... 84
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari ..... 87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li

Экспериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе "Руководитель - Подчиненный" ..... 90
Назирова Лола Васижановна

Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari ..... 94
Raxmonova Nigina Aminjonovna

Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich ..... 97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash ..... 100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna

Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi ..... 105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.

Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari ..... 110
Kudratova Lola Ravshanovna

Копинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде ..... 113
Аскарова Гулрух Оринбосаровна

Rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish ..... 117
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Amirova Munisa Yusuf qizi

Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова "Отверзи мне двери" и Улугбека Хамдама "Бунт и смирение" ..... 122
Чернова Татьяна Алексеевна

Role of Innovation in Economic Development ..... 125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni ..... 128
Xasanova Nilufar Botirboyevna

Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompentensiyalarini rivojlantirish ..... 133
Artikbayeva Aziza Abrorovna

O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari ..... 136
To'laganova Ziyoda

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish ..... 141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak ..... 144
Rizayeva Xusniya Ubayevna

Mehrjon bayrami ..... 148
Uralova Momogul Karimberdinovna

Bo'lajak tarbiyachilarni ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash ..... 151
Sadikova Shoista Akbarovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilingual rivojlanish ..... 154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi

Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в доо ..... 157
Эргашева Камола Алишеровна

Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children ..... 161
Gaukhar Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar

# RIVOJLANISH MARKAZLARIDA 6-7 YOSHLI BOLALARNI MUSTAQIL FAOLIYATINI TASHKIL ETISH



Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna
Maktabgacha ta'lim texnologiyasi kafedrasi dots.nti v.b pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),

Amirova Munisa Yusuf qizi
Maktabgacha ta'lim fakulteti 3-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi rivojlanish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etishning mazmun-mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari batafsil yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, rivojlanish, bola,tarbiyachi, rivojlanish markazlari,maktabgacha ta'lim tashkiloti, mustaqil faoliyat,ta'lim-tarbiya,rivojlantiruvchi muhit.

**Abstract:** This article describes in detail the essence and features of organizing independent activities of children 6-7 years old in development centers of preschool educational organizations.

**Key words:** preschool education, development, child, teacher, development centers, preschool educational organization, independent activity, training and education, developmental environment.

**Аннотация:** В данной статье подробно описаны сущность и особенности организации самостоятельной деятельности детей 6-7 лет в центрах развития дошкольных образовательных организаций.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, развитие, ребенок, педагог, центры развития, дошкольная образовательная организация, самостоятельная деятельность, обучение и воспитание, развивающая среда.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" gi qaroriga 1-ilovada "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari" va 2-ilovada "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining ishlab chiqilishi maktabgacha ta'lim tizimini samarali faoliyatini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berishda, intellektual, jismoniy, ma'naviy-axloqiy, etik va estetik jihatdan rivojlantirishga, shuningdek ularni maktabga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim bugungi kunda dolzarb masalalardandir. Darhaqiqat har bir bola rivojlanishining zamini maktabgacha davrdan boshlanadi.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlanish markazlarida bolalarning kommunikativ jarayonlarini shakllanishi, tarbiyachi-pedagoglar tomonidan metodik imkoniyatlarni yaratilishi bolaning barkamol rivojlanishida ayniqsa qiziqarli va foydalidir. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida quyidagi rivojlanish markazlarida bolalar o'zlarining ilk kommunikativ sifatlarini o'zlari rivojlantirish borish ko'nikmasiga egadirlar:

- Qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazi;
- Til va nutq markazi;
- Syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazi;
- Ilm-fan va tabiat markazi;
- San'at markazi;
- Musiqa va ritmika markazi.

Yuqoridagi keltirilgan rivojlanish markazlarida har bir yosh guruhlarida tarbiyalanuvchilarning mustaqil faoliyati, ta'limiy-tarbiyaviy jarayoni tarbiyachi tomonidan kuzatib boriladi va rivojlanish xaritasida qayd etiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy davlatlar olimlari J.Piaje (Fransiya), J.Iverson, L.Ferson, (Angliya), X.Feldman (Amerika), K.Erikson (Amerika) va boshqalarning tadqiqotlarida maktabgacha ta'lim-tarbiya, bolalarda muloqotni rivojlantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Buyuk olimlar Jan Piaje, Erikson, L.Vigotskiy nazariyalari bo'yicha bolani o'rab turgan rivojlantiruvchi muhitni faollik markazlariga bo'lishni tavsiya etadi. Buning uchun guruhdagi barcha materiallar va jihozlar sohalar bo'yicha tartibga solinishi lozim. Bu bolalar o'yinlari va ishlarining yanada qulay uyushtirilishiga yordam beradi. Bu sohalar faollik markazlari deb ataladi. Bugungi kunda rivojlantiruvchi markazlar deb yuritilmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida barcha yosh guruhlarida, shuningdek, 6-7 yoshli bolalar qamrab olingan maktabga tayyorlov guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi ta'limiy jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o'z bilimini mustaqil ravishda to'ldirib borish, kechayotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o'rgatish rivojlantiruvchi markazlarining asosiy maqsadidir.

MTT tarbiyachisi o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda ularga munosib tarzda yetkazadilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagogik jamoasining o'rni shundan iboratki, ular har bir bolaning qiziqishi, qobiliyati va ehtiyojini inobatga olgan holda mos keladigan maqsadlar qo'yishlari, bolalardagi tabiiy qiziqishlarni qo'llab-quvvatlashlari, ularda borliqni birgalikda o'zlashtirish ko'nikmalarini shakllantirishlari kerak.

Rivojlanish markazlaridagi ta'lim jarayonida bolalarning o'zlari tegishli rivojlanish markazini ixtiyoriy tanlay boshlaydilar. Bolalarni mustaqil guruhlarda ishlashi, individuallashtirishda tarbiyachi shunday faoliyat turlarini o'ylab topadiki, unda barchaga birdek ko'rsatma berilsa-da, biroq har bir bola undan kelib chiqqan holda o'zi mustaqil ravishda muvaffaqiyatga erishishiga imkon beriladi. Individuallashtirish darajasini optimallashtirish mumkin. Epchillik va topqirlik talab etiladigan faoliyat turini tanlagan va bolalarni diqqat bilan kuzatgan holda tarbiyachi zaruriyat tug'ilib qolsa topshiriq va materiallarni o'zgartirishi yoki moslashtirishi mumkin

Guruhlardagi markazlar shunday tarzda yaratilishi kerakki, u bolaga mustaqil tanlash imkonini bersin. Har bir guruhda 6 ta markazlar bo'lib, ularning har birida izlanish va o'yinlar uchun yetarli miqdordagi materiallar saqlanadi va bolalar ular bilan bevosita aloqa bog'laydilar.

**Qurilish va konstruksiyalash markazi**da turli xil va shakldagi qurilish elementlari mavjud bo'lib, bolalar ulardan o'z fantaziyasiga tayangan holda inshootlar bunyod etadilar. Masalan, ko'rgan tarixiy obidalari, uylar, ferma va shu kabilar. Qurilish bilan mashg'ul bo'lgan bolalar bu yerda juda ko'p narsalarni o'zlashtirib oladilar. U bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishga, ijtimoiy ko'nikmalarni egallashga yordamlashadi, muammolarni hal etish tajribasini beradi. Bu yerda, shuningdek, ijodiy yondashishni namoyon etish va bajariladigan ishga diqqatni jalb etishni o'rganish mumkin. Ushbu markazga tarbiyachilar va bolalar xohish-istagiga ko'ra ko'plab turli narsalarni – o'yinchoq mashinalar, yuk mashinalari, samolyotlar, gazlama bo'laklarini qo'shib qo'yish mumkin.

**Syujet-rolli o'yinlar va dramalashtirish markazi**da bolalarda haqiqiy hayotdan olingan kichik sahnalashtirishni o'ynashga xohish-istak uyg'otish uchun albatta kerakli kiyimlar va boshqa narsalar bo'lishi zarur. Bular ularda atrofda nimalar sodir bo'layotganini anglash, ularni ajrata olish hamda hayotda o'z o'rinlarini tushunib yetishlariga yordam beradi.

**Til va nutq markazi**da kitoblar va eshitish hamda yozish uchun o'quv qurollari mavjud bo'ladi. Bu tinch burchak bo'lib, unda bolalar kitoblarni qarab chiqishlari, bir-birlariga o'qib berishlari mumkin. Shuningdek, bu yerda tarbiyachi yoki ko'ngilli yordamchi bolalarga kitobni ovoz chiqarib o'qib berishi mumkin. Unda bolalarga kitobchalarni o'z qo'llari bilan yasash, mavzu (syujet)larni o'ylab topish va ijro etish, hikoyalar tinglash taklif etiladi.

**Ilm-fan va tabiat markazi**da boshqotirma va konstruktor kabi bolalar yig'ishi va bo'laklarga ajratishi mumkin bo'lgan narsalar bo'lishi lozim. Bu yerda, shuningdek, bolalarning bir xilda taqqoslashlari, turlicha tasniflashlari, sanashlari uchun yordam beradigan o'yinlar ham bo'lishi kerak. Ushbu markazda bolalarning tabiat hodisalari haqida bilib olgan tushunchalari va ko'chadan topilgan narsalar bilan mashg'ul bo'lishlari uchun foydalaniladi.

**San'at markazi** bolalarning o'z ijodiy qobiliyatlarini sinovdan o'tkazish va amalga oshirishga rag'batlantiradi, ularga yangi materiallar bilan tanishishdan qoniqish olish imkoniyatlarini beradi, bolalarning sezish qobiliyatini boyitadi. Bu yerda bo'yoq, qog'oz, qaychi, bo'rchalar, qalamlar, gazlama bo'laklari va kesish hamda yelimlash uchun turli qiyqimlar mavjud. Shuningdek, tabiiy materiallar – yog'och, barg, qum-tuproqni ham qo'shib qo'yish foydadan xoli emas. Ushbu markazdagi mashg'ulotlar ijodiy qobiliyat, so'z orqali va so'zsiz muloqot, umumiy va nozik harakatlanish, aqliy qobiliyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan.

**Musiqa va ritmika markazi**dan butun kun davomida mashg'ulotlarni birlashtirish uchun foydalanish mumkin. Kuylash, harakatlar, qarsak chalish, o'yinlar, musiqa asboblari chalish va yozilgan kuy-qo'shiqlarni tinglash har qanday dasturni yaxshigina to'ldiradi. Musiqiy mashg'ulotlar zehnni charxlaydi, ritmga, sanashga o'rgatadi va nutqni rivojlantiradi; umumiy va nozik harakatlanishni (motorikani) rivojlantiradi va ijodiy qobiliyatni namoyish etishga imkon beradi.

Tarbiyachilarning vazifasi – bolalarning muloqotga kirishishga bo'lgan qiziquvchanligini rag'batlantiruvchi muhitni yaratish va bolalarning o'zgaruvchan ehtiyojlariga qarab, o'z vaqtida kerakli sharoitlarni moslashtirgan xamda ularni kuzatishdan iborat(1-2-rasm).

## TAHLIL VA NATIJALAR




1-rasm

2-rasm

**Rivojlanish markazlariga qo'yiladigan talablar**

- Eng avvalo, markazlarda toza havo, toza joy, normal harorat va yorug' xonalarda tashkil etilishi lozim.
- Har bir markaz bolani noxush, kutilmagan hodisalardan saqlaydigan xavfsiz joyda bo'lishini ta'minlash.
- Markazlarda bolalarning harakat, tajriba, va kashf qilishlarini rag'batlantirish, buning uchun zarur shar-sharoitlar yaratish.
- Markazlardagi barcha jihoz va qo'llanmalar bolaning bo'yi yetadigan balandlikda bo'lishi hamda bola ulardan bemalol foydalana oladigan bo'lishi kerak.
- Markazdagi faoliyat davomida bolalar o'rtasida hamkorlik va muloqotni rag'batlantirish (kichik guruhlar, juft bo'lib va o'yin o'ynashlariga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.).
- Bolalarda muassasaga tegishlilik, markazlarda jihozlarni o'z joyida turishi, mavzular bo'yicha taqsimlanishi zarur.
- Markazlar mazmunli qismlarga bo'linishi va u yerda bola uchun qiziqarli ashyolar, jihozlar, o'yinchoqlar, tarqatmalar bo'lishi.
- Markazga tegishli mebel bolaning jismoniy holatiga va erkin harakatlana olishiga to'siq bo'lmaydigan qilib joylashtirilgan bo'lishi, bola o'ziga tegishli jihozlarni bemalol harakatlantira olishi zarur.
- Markazlardagi rivojlantiruvchi muhit tarbiyachilarga ham, bolalarga ham qulay bo'lishi kerak.
- Bolaga erkin tanlash imkoniyatini berish va mustaqil qaror qabul qilishga undash muhim.
- Bolaning o'z tengdoshlari bilan munosabatga kirishishiga yordam berish zarur.
- Markazlardagi bolalar faoliyati samarasi kundalik qilinadigan ishlarni biror jadvalda bola ko'ra oladigan va tushunadigan holatda ilib qo'yish darkor.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, bolaning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan markazda faoliyati nafaqat bolani mustaqil hayotga tayyorlaydi, balki bugungi kunni samarali o'tishi, o'sish va rivojlanish jarayoni tabiiy holda kechishi uchun zarur shar-sharoitlar yaratishni ko'zda tutadi.

Shunday ekan, rivojlanish markazlarini tashkil etishda tarbiyachi aynan nimalarga e'tibor berishi zarur?

- bolalardagi qiziqish, layoqat va qobiliyatlariga;
- rivojlanish ko'rsatkichlariga va yosh xususiyatlariga;
- bolaning ehtiyoj va talablariga;

- bolalar jamoasiga, kichik jamoalar va juft-juft bo'lib faoliyat olib borishlariga sharoit yaratilgan bo'lishi, alohida e'tibor talab etiladi.

Bizning fikrimizcha, maktabgacha 6-7 yoshdagi bolalarning rivojlanish markazidagi mustaqil faoliyati natijasida ularda yetarli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanadi:

- yangi sharoitga tezda moslashadi;
- kichik jamoa bo'lib ishlashni o'rganadi;
- o'z ehtiyojlarini ayta oladi va namoyish qiladi;
- o'z tengdoshlari bilan muloqotga oson kirishadi;
- o'z xulq-odobini va muloqotchanligini namoyon qila oladi;
- o'z tengdoshlarining hissiy holati va munosabatlarini yaxshi tushunadi; tengdoshlarini qo'llab-quvvatlaydi, hayrixohlik ko'rsata olishga o'rganadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 802-son 2020-yil 22-dekabr (1-2 ilova).
2. Takomillashtirilgan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – T.:2022-yil.
3. Выготский Л.С. Психология. – М.: Изд-во ЭКСМО-ПРЕСС, 2000. – 1001 с.
4. Махмутазимова Ю. Р. (2019). Роль воспитателя в детском саду в формировании личности ребенка.//Actual Problems of Applied Sciences Journal World, (3), 24-28.
5. Махмутазимова Ю. Р. (2020). Дошкольная образовательная организация и семья: взаимодействие ребенка и педагога. //Вестник педагогики: наука и практика, (51), 125-126.

**Muharrir:** **Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 2-3**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

"Maktabgacha va maktab ta'limi"
jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**